

## **ZULFIYA ISROILOVA SADOQAT VA VAFO TIMSOLI**

*Eraliyeva Shohsanam Muzaffar qizi*

*Toshkent Tibbiyat Akademiyasi talabasi*

**Annatatsiya:** Zulfiya Isroilovani ijodini milliy zaminga teran tomir otgan daraxtga o'xshatish mumkin. Zulfiya har bir o'zbek ayoliga o'rnak bo'la oladi. Davr va poeziya ayol erki, ayol qalbi, ona baxti va armonlarini kuylovchiga intizor bo'lgan paytda Zulfiyaxonim bir chaqmoq kabi ana shu bo'shliqni to'ldirib yuzaga chiqdi. Uning sadosi chaqmoqday bo'lsa-da, davriyligi qisqa bo'lindi. Hayot sinovlari, yo'qotishlar baxtga, muhabbatga limmo-lim qalb tug'yonlarini to'sa olmadi. Zulfiyaxonim sermashaqqat ijod bog'ining haqiqiy malikasi edi. Ushbu maqolada Zulfiya ijodidagi o'zig hos bo'lgan ayollik obrazi keng ochib berilgan

**Kalit so'zlar:** Nilufar, hayot varaqalari, Javoharlal Neru, kuylarim sizga, O'zbekiston xalq shoirasi

**Аннотация:** Творчество Зульфии Исраиловой можно сравнить с деревом, имеющим глубокие корни в национальной почве. Зульфия может быть примером для каждой узбечки. В то время, когда поэзия ждала певицу женского мужества, женского сердца, материнского счастья и мечты, Зульфияханим словно молния заполнила эту пустоту. Хотя его звук был подобен молнии, его продолжительность не была короткой. Жизненные испытания и потери не смогли остановить стремление сердца к счастью и любви. Зульфияханим была настоящей царицей сада трудолюбивого творчества. В данной статье широко раскрывается уникальный образ женственности в творчестве Зульфии.

**Ключевые слова:** Нилуфар, страницы жизни, Джавахарлал Неру, мои песни вам, Народный поэт Узбекистана.

**Annotation:** Zulfia Israilova's work can be likened to a tree with deep roots in the national soil. Zulfiya can be an example for every Uzbek woman. At a time when poetry was waiting for a singer of a woman's courage, a woman's heart, a mother's happiness and dreams, Zulfiyakhanim appeared to fill this void like a bolt of lightning. Although its sound was like lightning, its duration was not short. Life's trials and losses could not stop the heart's desire for happiness and love. Zulfiyakhanim was a true queen of the garden of hard-working creativity. In this article, the unique image of femininity in Zulfiya's work is widely revealed

**Key words:** Nilufar, life pages, Jawaharlal Nehru, my songs to you, People's Poet of Uzbekistan.

Zulfiya Isroilova xalqimizning atoqli va ardoqli vakili, O‘zbekiston xalq shoiri, xalqaro «Nilufar», Javoharlal Neru nomidagi hamda Davlat mukofotlari sohibasidir. U 1915-yili Toshkent shahrining qadimiyligi Dergez mahallasida tavallud topgan. Avval boshlang‘ich maktabda, so‘ng xotin-qizlar bilim yurtida tahsil olgan. 1935–1938-yillarda O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Til va adabiyot instituti aspiranturasida o‘qigan. 1932 yil 17 yoshni qarshi olganda, uning “Hayot sahifalari” nomli ilk she’riy to‘plami omma yuzini ko‘rdi. Bular — yoshlar, do‘slik, inson qalbining go‘zalligi haqidagi she’rlar edi. So‘ngra, she’rlari, dostonlari va hikoyalari e’tirof qilinib, turli nashrlarda alohida kitoblar ko‘rinishida chop etila boshladi. 1938 yildan u turli yirik nashriyotlarda ishlaydi, respublika va respublikalar aro har xil tashkilotlar a’zosiga aylanadi. N.Karimov, I.G’afurov, A. Akbarov, O. Sharafiddinov, H. Umarov, O.Hojiyeva, M. Ulug’ova kabi adabyotshunos olimlarimiz, ijodkorlarimiz ta’kidlaganlar va Zulfiya ijodiga yuksak baho bergenlar. Qozog‘iston diyorida ko‘p uchrashuvlar bo‘ldi, har uchrashuvda Zulfiyaning nomi alohida tilga olinar, undan she’r o‘qib berishini talab qilishardi. Qozoqlarning bizning shoiramizga muhabbati shu qadar cho‘ng ekanki, bir-ikki joyda u favqulodda o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ldi. Safar davomida biz Ko‘kchatovga bordik. Benihoya go‘zal maskan ekan. Chiroyli qarag‘ayzorlar tevarak-

atrofga muattar hidlar taratadi. Yengil tuman ichida elas-elas ko‘rinayotgan tog‘lar havoda muallaq turganga o‘xshaydi. Lekin Ko‘kchatovning dovrug‘i tog‘lari-yu, o‘rmonlarida emas, ko‘llarida ekan. Bir viloyatning o‘zida katta-kichik saksonta ko‘l. Suvlari tiniq, bamisoli ko‘zguga o‘xshaydi. Unda sohildagi daraxtlar ham, tip-tiniq osmon ham aks etib, o‘zgacha joziba kasb etgan. Ayniqsa, Oynako‘lning go‘zalligi har qanday ta’rifdan yuqori. Qirg‘oqqa yaqinroq joyda suv ichidan kattagina qoyatosh chiqib turipti. Bu tosh darhol suv parilarini eslatdi – bunaqa go‘zal ko‘lda, ko‘ldan-da go‘zal suv parilari, bo‘lsa ne ajab. Eng qiziq voqeа biroz keyin – tushlik vaqtida ro‘y berdi. Tushlik she’rxonlikka, she’rxonlik qo‘shiqqa ulanib ketdi. Gurung avji qizib turgan bir paytda qozoq shoirlaridan biri turib, Zulfiyaga bag‘ishlagan she’rini o‘qib berdi. Unda shoир boyagi ta’rifi ketgan Oynako‘lni Zulfiyaga tortiq qilgan edi. Garchi bu sovg‘a ramziy bo‘lsa-da, Oynako‘lni ko‘tarib ketishning iloji bo‘lmasa-da, hammamizni juda xursand qildi.-deydi Ozod Sharafiddinov. Shoiraning she’rlari haqida, ularning latofati, insoniy jozibasi, teranligi to‘g‘risida juda ko‘p gapirish mumkin. Lekin men bugun bosh qa bir savolga javob izlayapman – Zulfiyani odamlarga ardoqli qilgan, adabiyotimizning yorqin yulduzlaridan biriga aylantirgan, XX asrning buyuk ayollari qatoriga qo‘sghan asosiy omil nima? Menimcha, bu uning e’tiqodi, juda yuksak ma’naviy va axloqiy fazilatlari, dili bilan tilining birligi, she’rlarida madh etgan insoniylik, vafo, sadoqat va diyonat degan narsalarga o‘zi hayotda og‘ishmay amal qilganida. Iste’dod ulug‘ ne’mat, lekin iste’dodning o‘zi bilan ish bitmaydi, shekilli. Ming afsuski, bizda ayrim iste’dodli shoirlar va shoiralar bor, biroq ular o‘zlarining iste’dodlariga berilib ketadilar-u, shunga yarasha inson sifatida ham ulug‘ bo‘lish kerakligini unutib yuboradilar. Bunaqa odamning ijodi biron-bir tayinli qimmatga yoxud salmoqqa ega bo‘lolmasligi o‘z-o‘zidan ayon. Zulfiya opaning ibrati shundan dalolat beradiki, har qanday iste’dodning yoniga insoniy fazilatlar qo‘silsagina, ijod muayyan salmoq kasb etadi. Bunga esa butun umr bo‘yi davom etadigan mashaqqatli mehnat bilan, astoydil jon kuydirish bilan erishiladi. Zulfiyaning oilaviy hayoti, muhabbat tarixi ko‘pchilikka yaxshi ma’lum. Zulfiya shoир Hamid Olimjonni sevib, u bilan 1935 yilda turmush qurdi. Biroq oradan to‘qqiz yil o‘tgach,

nogahoniy falokat tufayli ikkita farzand bilan eridan beva qoldi. Keyin esa umrining oxirigacha Zulfiya Hamid Olimjonga muhabbatini boshi ustiga qo‘yib, avaylab, asrab, gard yuqtirmay olib o‘tdi. Ba’zan Zulfiya to‘g‘risida ikki bolani otasiz katta qildi, deyishadi. Meningcha, bu unchalik to‘g‘ri emas, chunki Hamid Olimjon ruhan o‘z xonadonini biron kun ham tark etgan emas. Devorlardagi suvratlardan Hamid Olimjon yirik-yirik ko‘zlar bilan muttasil Zulfiyaga, farzandlariga qarab, ularning holidan xabar olib turardi, javondagi kitob lardan uning salobatli ovozi eshitilib turardi. Otaning ruhi tirk bo‘lsa, u oilaning hamma ishlarida, shu jumladan, bolalar tarbiyasida ham ishtirok etaverar ekan. Zulfiya hayotining muhim bir qismini Hamid Olimjonning adabiy merosini o‘rganish va nashr etish ishiga bag‘ishladi. Ana shu jarayonning uzviy qismi sifatida u shoirning "Semurg“ yoki Parizod va Bunyod" dostoni asosida qo‘g‘irchoq teatri uchun "Semurg“ pyesasi (S. Somova b-n hamkorlikda) hamda "Zaynab va Omon" operasi librettosini yozdi. A. S. Pushkin, M. Yu. Lermontov. N. A. Nekrasov, M. Voqif, L. Ukrainka, M. Dilboziy, S. Kaputikyan, E. Ognetsvet, Mustay Karim, Amrita Pritam, Ye. Bagryana va b. ning asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Uning asarlari ko‘plab chet tillarda, shuningdek, qardosh turkiy xalqlar tillarida nashr etilgan. Zulfiya xalqaro Javaharlal Neru (1968), "Nilufar" (1971) mukofotlari hamda Hamza nomidagi O‘zbekiston Davlat mukofoti (1970) laureati. Shuningdek, u Bolgariyaning "Kirill va Mefodiy" (1972) ordeniga sazovor bo‘lgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. M. Zulfiya, Toshkent, 1985; Ibrohimov M., Quyoshli she’riyat ijodkori, Toshkent, 1986;
2. Mirvaliev S. O‘zbek adiblari. Toshkent: „Yozuvchi“, 2000.
3. Naim Karimov. m. G. Gulyama, 1983.
4. Qayumov L. Shoira Zulfiya. Toshkent, O‘zadabiynashr, 1965.
5. Sultonova M., Ijod sahifalari, Toshkent, 1975; Zulfiya [bibliografiya], Toshkent, 1977;
6. Umurova G. (2017). Zulfiya badiiy mahoratinining ba'zi qirralari //O'zbek tili va adabiyoti. - Toshkent
7. G’aniyev I va boshq. Shavkat rahmon olami.-Toshkent
8. SHarafiddinov O. Sizni sog'indim, Zulfiya opa! - Ijodni anglash baxti. - T., SHarq, 2004.